

ISSN 2181-922X

TIL VA MADANIYAT

# UZBEKISTAN

## LANGUAGE & CULTURE

# O'ZBEKISTON

2023 Vol. 1

[www.navoiy-uni.uz](http://www.navoiy-uni.uz)  
[www.uzlc.navoiy-uni.uz](http://www.uzlc.navoiy-uni.uz)

ISSN 2181-922X

# **O‘ZBEKISTON:**

**TIL VA MADANIYAT**

# **UZBEKISTAN:**

**LANGUAGE AND CULTURE**

**2023 Vol. 1**

[www.navoiy-uni.uz](http://www.navoiy-uni.uz)  
[www.uzlc.navoiy-uni.uz](http://www.uzlc.navoiy-uni.uz)

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

**Bosh muharrir:** Shuhrat Sirojiddinov  
**Bosh muharrir o'rinbosarlari:** Nodir Jo'raqo'ziev  
Ziyoda Teshaboyeva  
**Mas'ul kotiblar:** Ozoda Tojiboyeva  
Sanjar Mavlyanov

### **Tahrir kengashi**

Hamidulla Dadaboyev, Mustafo Bafoyev, Samixon Ashirboyev, Shodmon Vohidov (Tojikiston), Qozoqboy Yo'ldoshev, Farhod Maqsudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ulvi (Ozarbayjon), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Murtazo Sayidumarov, G'aybulla Boboyorov, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinaxon Jamoldinova.

### **Tahrir hay'ati**

Nazef Shahrani (AQSH)	Abdulaziz Mansur (O'zbekiston)
Elizabetta Ragagnin (Italiya)	Timur Xo'jao'g'li (AQSH)
Ahmadali Asqarov (O'zbekiston)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akmal Nur (O'zbekiston)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Nikolas Kantovas (Buyuk Britaniya)
Bahtiyar Aslan (Turkiya)	Akmal Saidov (O'zbekiston)
Emek Uşenmez (Turkiya)	Mark Toutant (Fransiya)

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

**Email:** uzlangcult@gmail.com  
**Website:** www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

**Editor-in-Chief:** Shuhrat Sirojiddinov

**Deputy Editors in Chief:** Nodir Jurakuziev  
Ziyoda Teshabaeva

**Executive secretaries:** Ozoda Tajibaeva  
Sanjar Mavlyanov

### **Editorial board**

Hamidulla Dadaboev, Mustafo Bafoev, Samikhan Ashirboev, Shodmon Vohidov (Tajikistan), Qozoqboy Yuldashev, Farhad Maksudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ülvi (Azerbaijan), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jurakulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Murtazo Sayidumarov, Gaybulla Babayarov, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinakhan Jamoldinova.

### **Editorial Committee**

Nazif Shahrani (USA)	Abdulaziz Mansur (Uzbekistan)
Elisabetta Ragagnin (Italy)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ahmadali Asqarov (Uzbekistan)	Tanju Seyhan (Turkey)
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Hisao Komatsu (Japan)
Akmal Nur (Uzbekistan)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Akrom Habibullaev (USA)	Nicholas Kontovas (Great Britain)
Bahtiyar Aslan (Turkey)	Akmal Saidov (Uzbekistan)
Emek Üşenmez (Turkey)	Marc Toutant (France)

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

**Email:** uzlangcult@gmail.com

**Website:** www.uzlc.navoiy-uni.uz

## MUNDARIJA

### Lingvistika

#### **Tanju Seyhan, Sabohat Bozorova**

Gazeta tilidagi ba'zi standart vositalarning grammatik-funksional xususiyatlari.....6

#### **Sayali Sadıqova**

Azərbaycan dilində hərbi termin yaradıcılığı.....19

#### **Nurislom Xursanov**

Tilshunoslikda diskurs va pragmatikaga aloqador hodisalar.....30

#### **Rəxşanə Babazadə**

Eyni kökdən ayrılan mənalar (Azərbaycan və Türkiyə Türkçələri əsasında).....46

#### **Ehsanullah Quvanch**

O'zbek tilining Afg'oniston Islom Respublikasi davridagi ahvoli va davlat tashkilotidagi o'rni.....60

### Adabiyotshunoslik

#### **Ilhom Aslonov**

Temuriy hukmdorlar obrazining "Boburnoma" da aks etishi.....73

#### **Gulandom Yuldasheva**

Mariya Sabtelni tadqiqotlarida Hirot madaniy muhiti tavsifi.....84

### Etnologiya. Etnografiya. Antropologiya

#### **Adhamjon Ashirov**

O'zbek xalqi turmush tarzi va og'zaki ijodida ot kulti.....97

### San'at

#### **Jamoliddin Jo'rayev**

Haydar Xorazmiyning "Gulshan ul-asror" asari qo'lyozmalariga ishlangan miniatyuralar xususida.....108

## CONTENT

### Linguistics

#### **Tanju Seyhan, Sabohat Bozorova**

Grammatical and functional characteristics of some  
standard tools in newspaper language.....6

#### **Sayalı Sadıqova**

Creation of military terms in the Azerbaijani language.....19

#### **Nurislom Khursanov**

Discourse and pragmatics: phenomena in linguistics.....30

#### **Rəxşanə Babazadə**

Meanings separated from the same root.....46

#### **Ehsanullah Quvanch**

The status of the Uzbek language during the Islamic  
Republic of Afghanistan and its place in the state system.....60

### Literature

#### **Ilhom Aslonov**

Reflection of the image of the Timurid rulers in "Baburnama".....73

#### **Gulandom Yuldasheva**

A description of the cultural environment of Herat in the studies  
of Maria Sabtelni.....84

### Ethnology. Ethnography. Anthropology

#### **Adhamjon Ashirov**

The cult of the horse in the oral creativity of the lifestyle  
of the Uzbek people.....97

### Art

#### **Jamoliddin Juraev**

On the miniatures worked to the manuscripts of Haydar Khorazmi's  
"Gulshan ul-asrar" .....108

ETNOLOGIYA. ETNOGRAFIYA. ANTROPOLOGIYA  
ETHNOLOGY. ETHNOGRAPHY. ANTHROPOLOGY

## O'zbek xalqi turmush tarzi va og'zaki ijodida ot kulti

Adhamjon Ashirov<sup>1</sup>

### Abstrakt

Maqolada o'zbek xalqi turmush tarzi ot kulti, ot bilan bog'liq turli-tuman urf-odat va marosimlar hamda ularning tarixiy asoslari etnografik materiallar asosida tahlil qilingan. Muallif ot totemi, xalq og'zaki ijodining o'ziga xos janrlari – doston, qo'shiq va maqollardagi ot bilan bog'liq qarashlarni ilmiy asosda tahlil qilgan. Ot bilan bog'liq joy nomlari, jumladan, ziyoratgoh va qadamjoylar tarixi yoritilgan. Shuningdek, ot tanlashdagi turli an'analar bilan bog'liq "Davra" marosimi va qator boshqa urf-odatlarining genezisi borasida yangicha qarashlar ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** *o'zbeklar, turkiylar, ot, jonivor, kult, totem, marosim, an'ana, duldul, qorabaytal, ayg'ir, "davra solish" epos, doston, maqol, epik qahramon, oila, nikoh, motam.*

### Kirish

Xalqona milliy an'ana va marosimlarda bani-bashar xotirasida elas-elas saqlanib kelayotgan diniy tasavvurlar, uzoq tarix qa'ridagi e'tiqodiy qarash va tushunchalar, asrlar davomida kuza-tishlardan hosil bo'lgan hayotiy hikmatlar qaymog'i – inson tafakkur tajribasining in'ikosi mujassamlashgan.

Uzoq o'tmishda yashagan ajdodlarimiz tabiat va turmushdagi ayrim narsa va hodisalarni ilohiylashtirganlar. Ularni Tangri tomonidan berilgan ehson, omol (ideal), qadriyat, odamlar esa ularga topinib, sig'inib yashashi lozim deb o'ylaganlar. Har bir qadriyat, marosimning kelib chiqishini diniy nuqtayi nazardan izohlashga uringanlar. Shu tarzda inson va tabiat, kishilik va hayvonot olami o'rtnasidagi munosabati, dunyoqarash tizimi shakllana boshlagan.

<sup>1</sup>Ashirov Adhamjon Azimboyevich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

**E-pochta:** adhashirov@yandex.ru

**ORCID ID:** 0000-0002-3484-1647

**Iqtibos uchun:** Ashirov, A.A. 2023. "O'zbek xalqi turmush tarzi va og'zaki ijodida ot kulti". *O'zbekiston: til va madaniyat* 1: 97-107.

Tarixdan ma'lumki, qadimgi diniy tasavvurlar va mifologik qarashlarga ko'ra, hayvonlar homiy, saqlovchi-tumor, ajdod boshi kabi sifatlar bilan ulug'langan. Hayvonlarning xonakilashtirilishi unga nisbatan diniy-mifologik tasavvurlarning rivojlanishi va ularni marosimiy hayotning bir qismiga aylanishiga sabab bo'lgan. Qolaversa, hayvonlarni qo'lga o'rgatilishi natijasida undan transport maqsadida ham foydalanilgan.

Hayvonot olamida ot o'ziga xos o'rin tutgan. Mutaxassislar otlarning paydo bo'lish tarixini olti million yil avvalgi davrlar bilan bog'laydilar [Ковалевская 1977, 7]. Tarixdan ma'lumki, inson va ot parallel ravishda evolyutsion rivojlangan. Qolaversa, ot kulti insoniyat tarixidagi eng qadimgi kultlardan biri bo'lgan. Shu sabab u kishilik tarixida dastlabki arxetip<sup>1</sup> – ramz bo'lgan.

Mutaxassislar fikriga ko'ra, Yevroosiyo dashtlari va Osiyoning yon bag'irlarida otlar ilk bora qo'lga o'rgatilgan.

Qadimda ko'pgina xalqlarda jangchini oti, xotini, buyumlari, oziq-ovqatlari bilan birga dafn etish odati bo'lgan. Bunday marosimlar animistik tasavvurlar, inson ruhining u dunyoda ham yashashiga ishonch bilan bog'liqdir.

Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi – “Avesto”ning Yasht qismida ot Sharqiy Eron va Turondagi qadimgi xalqlar, ya'ni buqa totemli Atvya qavmiga qarshi kurashuvchi Purushasplarning fratriysi sifatida qayd qilingan [Толстов 1948, 208], buqa totemi o'g'uzlarning ham muqaddas totemi bo'lgan [Толстов 1935, 3–41]. Biroq keyingi davrlarga oid zardushtiylik yozuvlarida ot Ahriman timsoli, ya'ni qora ot ko'rinishida tasvirlanadi [Толстов 1935, 304]. Shuningdek, “Avesto”da Ardivisura Anaxita bir xil zotli to'rt oq ot qo'shilgan aravada Tangri dargohidan yerga – bandalari huzuriga uchib tushgan holda bayon qilinadi [Авесто 2001, 171].

### **Turkiylarda ot madaniyati**

Mashhur arxeolog S. P. Tolstov tadqiqotlariga ko'ra, mas-sagetlarning asosiy totemlaridan biri hisoblangan ot chavandoz Tangri obrazida ming yillar davomida davlat ramzi bo'lib kelgan [Толстов 1935, 202].

O'zbek urug'laridan biri Farg'ona vodiysi qipchoqlarida ot totemi bilan bog'liq *to'rt ayg'ir, samanotli, qorabaytal, qulon* kabi qator urug'lar mavjud bo'lgan [Шаниязов 144]. Ushbu urug'lar

---

<sup>1</sup>Arxetip (yunon. arche-boshi, boshlanishi, typos-obraz) jamoaviy, idrok etilmagan), ilk ibtidoiy obrazlar, universal ramzlar yoki motivlardir. Ushbu atama fanga ilk bora K.G.Yung tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan va jamoaviy tushuncha bilan bog'liq tasvirlarni izohlashda foydalanilgan.



nomlarining kelib chiqishi bevosita ot totemi bilan bog'liq. Qadimda ot qipchoqlar va ularning ba'zi bir urug'larida urug' ajdodi – totemi hisoblangan. Keyinchalik esa ot totemi o'z ko'rinishini o'zgartirib, dafn marosimlaridagi qurbonliklar bilan bog'langan [Марқаев 2005, 94-95].

Ta'kidlash joizki, turkiylar ilohiy mo'jiza bo'lmish otga gapiradigan va ucha oladigan aqlli mavjudot sifatida qaraganlar. Shu sababli, turkiylar kundalik turmush tarzi va xo'jalik hayotida muhim o'rin tutgan ot muqaddaslashtirilib, topinish (kult) darajasigacha ko'tarilgan.

Turkiy xalqlar qadimdan ikki dunyoni ham otsiz tasavvur eta olmaganlar. Ularda jangchi vafot etgach, udumga ko'ra, sevimli oti egar-jabduqlari bilan egasining yoniga izzat-hurmat ila dafn etilgan. Agar marhumning qarindoshlari ot ko'mishga qurbi yetmasa, u holda uning egar-jabdug'i va anjomlari ko'milgan.

Turk olimi Usmon Turon ham yuqoridagi fikrni tasdiqlagan holda, “turkiy xalqlarda o'lgandan keyin otlari va qurol-aslahalari bilan ko'milishiga sabab, hayvonga minib jannatga ketishlariga ishonch bo'lgan”, – deb yozadi [Osman Turan 1993, 51]. Darhaqiqat, insonni tirikligida minib yurgan oti bilan birga ko'mish odati miloddan avvalgi VII–VIII asrlardagi skiflar davridan to milodiy VII asrigacha davom etgan. Bu marosim asosan VI asrda Turk xoqonligida keng tarqalgan edi.

Turkiylarda qurbonlik uchun otlar ham tanlangan. Ma'lumki, qurbonlikning mohiyati Tangrini sevintirish va undan najot so'rashdir. Shu sababli, qadimgi massagetlar “eng buyuk”, eng tezkor quyosh Tangrisiga “eng tezkor” hayvon, ya'ni ot qurbonlik qilingan [Геродот 1972, 79].

### **Manbalarda ot tavsifi**

Tarixiy manbalarda ot tanlash va ularning fazilatleri haqida ham turfa ma'lumotlarni uchratish mumkin. Jumladan, “Qobusnoma”da otning yaxshi va yomon fazilatlarini uning bosh qismi va rangidan bilsa bo'ladi, deyiladi. Yaxshi ko'rkam otni “baytara qoplamali” deb ataydilar. Uning tishi nozik, payvasta va oq bo'ladi. Pastki labi uzunroq, burun teshiklari balandroq va keng, peshonasi keng, quloqlari uzun hamda quloqlari orasi ochiq, bo'yni to'g'ri, bo'ynining tubi yo'g'on va orqasi baland, o'mrovi (ko'kragi) keng, old va orqa oyog'ining orqasi ochiq, quyrug'i (yag'ri) qattiq va uzun, dumg'azasi nozik va qisqa, orqa sonining ichki qismi, ko'z va kipriklari qora bo'lishi har bir yaxshi otda kuzatilishi qayd etiladi

[Кайковус 1994, 81-84].

“Qobusnoma”dagi ushbu sifatlarni inobatga olish bilan birga, otlarni tanlaganda, ulardagi bosh qismi go’shtdor bo’lmasligi (xalq tilida “qoq kalla”), ko’zida oq rangning ozligiga e’tiborli bo’lish uqtirilgan [Кайковус 1994, 81-84]. Chunki ko’zda qizil tusning yaqqol ko’rinishi bu uning shiddatkorligi, ziyrakligi va hushyorligidan dalolat beradi.

Umar Xayyomning “Navro’znoma” asarida otlarning rangiga qarab ularning chidamliligi, chopqirligi va qobiliyatini aniqlash bilan bog’liq ma’lumotlar mavjud. Masalan, “Xing (qizil)” tusli eng qobiliyatli ot. Otlarning ichida peshonasi, oyoqlari, qorni, tumshug’i, moyagi, dum va ko’zi – hammasi qora bo’lgan “Xing” yaxshidur”, deyiladi [Умар Хайём 1990, 43-44].

Darhaqiqat, otlarning rangi azaldan muhim ahamiyat kasb etgan. Masalan, o’zbeklar qizil rangli otga – jiyron, oq ranglisiga – bo’z, aralash rangdasisiga – ola va eng ko’zga tashlanuvchisiga esa qora otlar deb nom bergan. Otning yolini rangi uning xosiyatli yoki ahamiyatga ega bo’lmagan jonivorga aylanishiga sabab bo’lgan. Jumladan, farg’onalik chavandozlar qora rangli yoli va dumi bo’lgan otlarni xosiyatli deb bilgan bo’lsa, o’zbek-laqaylarda esa bo’z rangli otlar qadrlangan. Qolaversa, xalqimiz orasida ommalashgan “To’riqni to’qib ol”, “Qorani qarab ol”, “Oqni oqlab ol” degan naqlar bejiz tarqalmagan<sup>1</sup>.

O’zbeklarda ot yoshiga qarab turli nomlar bilan nomlangan. Masalan, Farg’ona vodiysida otning yangi tug’ilgani – *qulun*, bir yoshda – *kalta toy*, ikki va uch yoshida – *g’unan*, to’rt yoshda – *pushti*, besh yoshda – *asi*, olti yoshda esa *ot* hamda *biya* deyiladi.

Otni tanlayotgan vaqtda unga egalik qiladigan chavandoz uning kuchi va chidamliligini o’zining baquvvat qo’li bilan silkitib (niqtab), bo’ysundira olish mahorati bilan sinab ko’rgan. Shuningdek, jonivorning yoshini aniqlashning zaruriyati uni uyurga qo’shish va ayg’irlarni saralab olishda juda muhim omil hisoblanadi.

Umuman olganda, turkiylarda ot xo’jalik hayoti, turli xil safarlar va harbiy harakatlar vaqtida yordamchi bo’lishi bilan birga, odamlarning eng sodiq do’sti, himoyachisi, baraka keltiruvchi, gunohlar uchun jazolovchi, insonlar va avliyolarning hamrohi, davolash xususiyatiga ega, xavf-xatardan ogohlantiruvchi jonivor sifatida qadrlangan. Shu bois, o’zbeklarda ot bilan bog’liq ko’plab urf-odat va marosimlar shakllangan bo’lib, bola tug’ilishidan tortib

<sup>1</sup>Ushbu ma’lumotlarni taqdim qilganligi uchun etnolog Ahrorbek Azizovga muallif minnatdorchilik bildiradi.

to motamgacha bo'lgan marosimlar siklida keng ommalashgan<sup>1</sup>.

### **Xalq og'zaki ijodida ot obrazi**

XV asrga oid "Dada Qo'rqut" kitobining bosh qahramoni Bamsiy Berek o'z otiga "Seni ot deb atamasman. Seni og'am deb atayman... seni do'stim deb atayman", – deb murojaat qiladi [Книга моего деда Коркута 1962, 45].

O'zbek xalq og'zaki ijodi, ayniqsa, dostonlarda ot epik qahramonning sodiq do'sti, yo'ldagi yo'ldoshi, sirdoshi; ertaklarda qahramonning og'irini yengil, uzog'ini yaqin qiluvchi mo'jizakor kuch egasi sifatida talqin etilgan. Shuningdek, qahramonlik eposlarida jangovar ot inson nutqini tushunadi, bahodirni xavf-xatardan ogohlantiradi, unga maslahat beradi, yarador bo'lganda esa jang maydonidan olib chiqadi. Bunday ot qahramonni suvsiz cho'llardan o'tib, bo'lmas tog' va o'rmonlardan olib o'tish hamda qisqa muddatda istalgan maqsadga yetkazishga qodir bo'lgan [Мирзаев 1968, 103].

Xalq dostonlarida mashhur G'irko'k ("Go'ro'g'li"), Boychibor, Ko'kdo'nan ("Alpomish"), Jiyronqush ("Ravshan"), Jiyron ("Yodgor") kabi millat timsoliga aylangan epik obraz otlar tavsif qilingan.

Ta'kidlash joizki, qadimda otlar rangi ham marosimiy ahamiyat kasb etgan, g'olib shoh va sarkardalar mag'lub shaharlarga doimo oq otda tantanali ravishda kirib borganlar. Xususan, turkiy xalqlar eposi va mifologiyasi an'alariga ko'ra qahramonning yaqin qarindoshi hamda do'sti hisoblangan epik ot ko'pincha oq yoki bo'z (ko'k) tusli tulpor sifatida tasvirlangan. Shuningdek, oq rang qadimdan turkiylarda muvaffaqiyat, g'alaba va omad ramzi hisoblangan. Masalan, hoqon Kultegin oq rangli otini minib jangga kirganida, doimo g'alaba qozongan ekan [Рахмонов 1991, 172].

Xalq og'zaki ijodida "*Ot – yigitning qanoti*", degan naql bejiz tilga olinmagan. Chunki ertaklarda otlar qahramonning yordamchisi sifatida ifodalanadi [Афзалов 1964, 45].

O'zbek xalq allalarida farzand "qulunim", "quluntoyim" deya erkalashni ko'rish mumkin. Shuningdek, xalq og'zaki ijodida "Yaxshi ot yod qoldirar, Yomon ot lat qoldirar", "Yaxshi ot jonga sherik, Yomon ot – molga", "Yaxshi ot – ko'pniki"? "Ot – yigitning yo'ldoshi", "Ot – yigitning qanoti" singari o'zbek xalq maqollarida ham otning mardlik timsoli, inson orzularini ro'yobga chiqaruvchi hayvon ekanligi, mehribonligi, rizqi ulug'ligi, ko'pga xizmat qilishi

---

<sup>1</sup>Ot kulti bilan bog'liq qarashlar borasida qozoqlarda ham qator ishlar amalga oshirilgan. Bu haqida batafsilroq qarang: [Токтабай 2004, 124].

singari fazilatları ulugʻlangan [Очилова 2022, 13-14].

Xullas, oʻzbek xalq ogʻzaki ijodida ot insonning eng yaqin doʻsti, ham tashqi, ham ichki goʻzallikka ega obraz, erk va kuch-qudrat timsoli sifatida talqin etilgan.

“Yodgor” dostonida esa qahramon otiga quyidagilarni aytadi:

*Asl hayvon sen Jiyron ot,  
Menga hamda berding quvvat,  
Uyqu bosib olgan gʻaflat,  
Yomon kunda berding madad*

[Ўзбекистон халқ достонлари 1957, 47].

Aynan mazkur satrlar orqali Yodgor oʻz otiga xaloskor va yomon kunlarda qutqaruvchi jonivor sifatida murojaat qilishini koʻrishimiz mumkin.

Umuman olganda, turk-moʻgʻul xalqlari eposlarida chavandoz va uning jangovar oti oʻrtasidagi uzviy bogʻliqlik, aqlli, fidoyi va goʻzal hayvonning epik qahramon hayotida muhim oʻrin tutishining genetik asoslari totemistik qarashlar bilan bogʻliq boʻlgan [Липец 1984, 124].

Qozoq xalqining “Qoblendi botir” eposida “Botir va uning otini joni bir boʻlar”, degan naql keltirilgan [Орлов 1945, 85]. Ushbu misollar otning inson hayotida tutgan oʻrni naqadar muhim ekanligini koʻrsatadi.

### **Oʻzbek marosimlari tizimida ot bilan bogʻliq urf-odatlar**

Oʻzbeklarda ot bilan bogʻliq koʻplab urf-odat va anʼanalar keng tarqalgan. Odatda ot bor xonadonga ins-jinslar kirmaydi, qolaversa, turar joylarni turli balo-qazolardan saqlash niyatida darvozaga ishlatilgan ot taqasi qoqib qoʻyilgan. Shuningdek, oʻzbek xalqi orasida otning “piri”, “devi” bor degan tushuncha keng tarqalgan. Shu sabab ot bor joylarga kechasi borish taqiqlangan.

Fargʻona vodiysida momolar tomonidan chaqaloqqa ilk kiyim boʻlgan “chilla koʻylak” kiydirishdan avval uni ot qozigʻiga kiydirib olingan. Bunday xatti-harakatdan koʻzlangan maqsad otning kuch-qudrati va chidamliligini afsungarlik yoʻli bilan chaqaloqqa oʻtkazishdan iborat boʻlgan.

Xalqda otning boshiga qamchi bilan urish gunoh ishlardan biri hisoblanadi. Muchal taqvimiga mansub ot yili qadimdan qutli va barakali keladi deb ishonilgan [Дала ёзувлари, 2004]. Qizlar tushida ot koʻrsa, unga sovchi keladi, yigit tushida ot koʻrganda esa uning martabasi ulugʻ boʻladi, deb irim qiladilar. Bundan tashqari, ilgari ayollar paranjisi ostidan betga toʻsiladigan toʻr parda, yaʼni chachvon,

chimmat ot yolidan to'qilgan. Chaqaloq bo'yniga ham yaxshi niyat bilan ot tolasi bog'lab qo'yilgan bo'lsa, homilador ayollarni ins-u jinslardan asrash niyatida esa eshik tepasiga ayg'ir yugani ilib qo'yilgan [Дала ёзувлари 2020]. Shuningdek, Farg'ona vodiysining ayrim hududlarida chaqaloqlarning beshiklarga tumor bilan birgalikda ot yolini osib qo'yish odati bo'lgan<sup>1</sup>. Bunday etnografik detallarning barchasiga magik himoya vositasi sifatida qaralgan.

Ot bilan bog'liq urf-odatlar o'zbeklarning yig'i va yo'qlov marosimlarida ham o'z ifodasini topgan. Axborotchilarning ta'kidlashicha, yaqin o'tmishda ham o'ziga to'q kishi olamdan o'tganida onasi, xotini, singlisi va bir qator qarindoshlari uning otini tuzab, kiyimlarini ot ustiga tashlab, atrofida aylanib, marhum amalga oshirgan ezgu ishlarini eslab yig'laganlar. O'z navbatida, mazkur marosim otga "*davra solish*" deb atalgan [Дала ёзувлари, 2018]. Marosim yakunida otning dumi kesilib, o'z ixtiyoriga qo'yib yuborilgan va ushbu otni hech kim minmagan, kesilgan dum esa ot egasining marhumligini anglatgan. Taniqli rus tarixchi va etnografi V. V. Radlov qozoqlarda ham ushbu odat mavjud bo'lganligini o'z asarlarida qayd etgan edi [Радлов 1989, 282].

Motam marosimlaridagi otga davra solish marosimi qadimda marhumlarni oti va unga daxldor narsalari bilan birga dafn etish marosimining transformatsiyaga uchragan ko'rinishi hisoblanadi.

### **Ot bilan bog'liq toponimlar**

Ot bilan bog'liq muqaddas joylar, ayniqsa, musulmon olamida Hazrat Ali hamda uning Duldul oti bilan bog'liq ko'plab qadamjoy va ziyoratgohlar ham bo'lgan. Turkiy xalqlari islomning dastlabki davridan boshlab qayerda ot tuyog'iga o'xshash o'nqir-cho'nqir joylar bo'lsa, bu izlarni Hazrat Ali Duldulining izi sifatida anglaganlar.

"Duldul" toponimi bilan bog'liq joy nomlari to'g'risida H. Hasanov quyidagi ma'lumotlarni keltirgan: "Amudaryoning Xorazmga kiraverishida, suvning ikki qirg'og'ida *Duldul o'tlagan* degan qoyatoshlar ko'rinib turadi". Ayni shu nomli qirg'oqlar Kofirnihon daryosi bo'yida, O'zbekiston bilan Tojikiston chegarasiga yaqin Xonaqo qishlog'i yonida ham bor. Bular afsonaviy uchar Duldul sharafiga atalgan Tojikistonning Hisor tumanidagi Jonbuloq qishlog'ida "Poyi Duldul" deb ataluvchi mozar mavjud bo'lib, u

---

<sup>1</sup>Ushbu ma'lumot etnolog Ahror Azizov tomonidan Andijon viloyati Buloqboshi tumani Shirmonbuloq qishlog'ida yozib olingan. Ma'lumotni taqdim qilganligi uchun muallif Ahror Azizovga minnatdorchilik bildiradi.

qishloq aholisining ziyoratgohi hisoblanadi [Хасанов 1965, 27]. Hatto Xitoyning g'arbiy qismidagi Uch Turfonda Hazrat Alining dulduliga bag'ishlab, mozor mavjud [Климович 1962, 272].

Farg'ona vodiysining har bir hududida Duldul bilan bog'liq ziyoratgohlar mavjud desak, xato qilmaymiz. Masalan, O'sh viloyati Aravon qishlog'ida "Duldul ota" mozori bo'lib, bu yerda Hazrat Ali chillaxonasi ham mavjud. Rivoyatlarga ko'ra, Hazrat Ali tulporini shu yerga bog'lab, o'zi Devi Safed bilan jang qilgani Aravonga yaqin joydagi Chilustun g'origa jo'nab ketgan ekan [Бернштам 1952, 226]. Shuningdek, Farg'ona viloyati So'x tumanidagi Dul ota, Qo'qon yaqinidagi Kishnog'ich to'ra mozorlarini ham Duldul bilan bog'laydilar [Бернштам 1952, 226]. Shuningdek, Uchko'prik tumani Sariqo'rg'on qishlog'ida joylashgan (Qo'qon atrofidagi aholining doimiy to'y uloqlari o'tadigan maydon) adirlikni aholi "Duldultepa" deb atashadi [Йўлдошев 2019, 68]. Shubhasiz, turli joy nomlari va ziyoratgohlarning ot, jumladan, Duldul nomi bilan bog'lanishi ham ma'lum ma'noda otlarni ilohiylashtirishning bir ko'rinishidir.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yuqoridagi fakt va dalillardan shunga amin bo'lamizki, o'zbeklarda ot ilohiy mo'jiza ko'rsatib, ucha oladigan, kelajak balo-qazolarini sezuvchi, do'st-dushmani taniydigan hamda aqlli jonivor sifatida qaralgan.

O'zbek xalqi orasida otni turli tarixiy davrlarda har muqaddas jonzot sifatida ulug'langan hamda kundalik va marosimiy hayotda muhim o'rin tutgan. Shu sabab ot hamon o'zini tutishi, insonga sadoqati bilan xalqimizning milliy madaniyatida alohida ahamiyat kasb etadigan jonivor bo'lib qolmoqda.

### **Adabiyotlar**

- Абдулаҳатов, Н.У. 2008. *Фарғона водийси аҳолиси турмуш тарзида зиёратнинг ўрни*. Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Тошкент.
- Авесто. 2001. Тарихий-адабий мерос. Асқар Маҳкам таржимаси. Тошкент.
- Афзалов, М. И. 1964. *Ўзбек эртаклари ҳақида*. Тошкент: Фан.
- Бернштам, А. Н. 1952. "Историко-археологические очерки центрального Тянь-Шаня и Памиро-Алая". *Материалы и исследования по археологии*. Москва-Ленинград: Наука.
- Геродот. 1972. *История в девяти книгах*. Ленинград: Наука.
- Дала ёзувлари. 2004. Қирғизистон республикаси Жалолобод вилояти

- Олабуқа тумани Мозор қишлоғи.  
*Дала ёзувлари*. 2018. Наманган вилояти Косонсой тумани Ровот қишлоғи.
- Дала ёзувлари*. 2020. Наманган вилояти Тўрақўрғон тумани Шаҳанд қишлоғи.
- Йўлдошев, С. В. 2019. *Фарғона водийси аҳолисининг халқ ўйинлари*. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. Тошкент
- Кайковус. 1994. *Қобуснома*. Тошкент: Истиқлол.
- Климович, Л. И. 1962. *Ислам*. Москва: Наука.
- Книга моего деда Коркута*. 1962. Перевод В.В. Бартольда. Москва – Ленинград, Изд. АН СССР.
- Ковалевская, Б. 1977. *Конь и всадник*. Москва: Наука.
- Липец, Р. 1984. *Образ батыра и его коня в тюрко-монгольском эпосах*. Москва.
- Марқаев, К. 2005. “Тотемистик тасаввурлар билан боғлиқ этнонимлар”. *Ўзбек тили ва адабиёти* 1: 95-94.
- Мирзаев, Т. 1968. *Алпомиш достонининг ўзбек вариантлари*. Тошкент: Фан.
- Токтабай, А.У. 2004. *Култ коня у казахов*. Алматы: Каз Издат.
- Osman Turan. 1993. *Türk Cihan Hâkimiyeti Mefkuresi Tarihi*. Gild.1, 6 bosk. Istanbul.
- Орлов, А. С. 1945. *Казахский героический эпос*. Москва-Ленинград.
- Очилова, Н. Ў. 2022. *Инглиззабон ғарб ва ўзбек насрида от образи талқини (Сетон-Томпсон, Анна Сювель, Тоғай Мурод, Туроб Тўла асарлари асосида)*. Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертация автореферати. Бухоро.
- Радлов, В. В. 1989. *Из Сибири*. Москва: Наука.
- Раҳмонов, Н.А. 1991. *Ўрхун-Енисей ёдномалари ва туркий эпослар*. Тошкент.
- Толстов, С. А. 1948. *Древний Хорезм*. Москва: Наука.
- Толстов, С. П. 1935. “Пережитки тотемизма и дуальной организации у туркмен”. *ПИДО* 9-10: 3-41. Москва.
- Ўзбек халқ достонлари*. 1957. II том. Тошкент: Фан.
- Умар Хайём. 1990. *Наврўнома*. Тошкент: Меҳнат.
- Хасанов, Х. 1965. *Ўрта Осиё жой номлари тарихидан*. Тошкент: Фан.
- Шаниязов, К.Ш. 1974. *К этнической истории узбекского народа (Историко-этнографическое исследование на материалах кипчакского компонента)*. Ташкент: Фан.

# The cult of the horse in the oral creativity of the lifestyle of the Uzbek people

Adhamjon Ashirov<sup>1</sup>

## Abstract

The article analyzes the lifestyle of the Uzbek people, the horse cult, various customs and ceremonies related to horses, and their historical foundations based on ethnographic materials. The author analyzed the horse totem, specific genres of folklore – epics, songs and proverbs related to the horse on a scientific basis. The history of horse-related place names, including shrines and pilgrimage sites, is covered. Also, new views on the genesis of the «Davra» ceremony and a number of other customs have been put forward.

**Key words:** *Uzbeks, Turks, horse, animal, cult, totem, ritual, tradition, duldul, Karabaital, stallion, «circling» epic, epic, proverb, epic hero, family, marriage, mourning.*

## References

- Abdulahatov, N.U. 2008. *Farg'ona vodiysi aholisi turmush tarzida ziyoratning o'рни*. Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya. Toshkent.
- Avesto*. 2001. Tarixiy-adabiy meros. Asqar Mahkam tarjimasi. Toshkent.
- Afzalov, M. I. 1964. *O'zbek ertaklari haqida*. Toshkent: Fan.
